

BADIY ADABIYOTDA MILLIYLIK

Djurayeva Ziyoda Salimovna

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 47-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy adabiyotda milliylik mavzusida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, qissa, milliylik, davr, obraz, ocherk, roman, ruhiyat

Badiiy adabiyot inson his-tuyg‘ulari, kechinmalarini ifodasi o‘laroq, davrlar mobaynida o‘z kuchi va sehrini yo‘qotmay keladi. Har bir yozuvchi va shoir ma’lum kasb vakili bo‘lishdan tashqari, ma’lum millat vakili sanaladi. O‘sha millat ichida yashaydi, ijod qiladi. Uning xarakteriga ham milliylik singib boradi. Mana shu xususiyatlar ijodkorlarning, yozuvchilarining asarlariga ham ko‘chib o‘tadi. Badiiy adabiyotda milliylik shu tariqa paydo bo‘ladi.

Adabiyotning milliy xususiyati jug‘rofiy sharoit, o‘sha xalq yashaydigan joyning o‘simpliklari, xalqning mashg‘uloti, turmush tarzi, urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bizda qizlarning yuzi oyga, kokillari majnuntolga, bo‘y-basti sarv daraxtiga yoki kiyikka o‘xshatiladi. Bu narsa xalq og‘zaki ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Silkinib turgan kiyikdek

Bo‘ylaringdan aylanay.

Yangi chiqqan maysadek

Kipriklaringdan aylanay.

Bunday motiv, badiiy tasvir va tashbehlari har bir millatning milliyligidan kelib chiqib asarlarda o‘z aksini topadi. Yevropa adabiyotida ham ularning o‘ziga xos turmush tarzi, bayramlari, an‘analari badiiy asarlarini o‘qish orqali tasavvurimizda

paydo bo‘ladi. “Asar badiiy jihatdan qanchalik yuksak bo‘lsa, shunchalar milliyidir. Milliylik shoirni ulug‘ qilmaydi, balki buyuk talent shoirni milliy qiladi. Agarda asar badiiy bo‘lsa, u o‘z –o‘zidan milliy bo‘ladi”, -deydi V.G.Belinskiy.

Milliylik asarda faqatgina qahramonni milliy libosda tasvirlash orqali emas, balki uning ruhiyati, axloqi va madaniyatini ochib berishda namoyon bo‘ladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Yusufbek Hoji og‘li Otabekka: “O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq”-deganda Otabek Yusufbek Hojiga: “Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari, albatta, noma’qul bo‘lmas”, -deydi. Shu holatda Otabek Yusufbek Hoji va onasi O‘zbekoyimning “qilib qo‘ygan va qilmoqchi bo‘lgan ishlarini” bilib turgan bo‘lsa ham, o‘zini bilmaganga solib odob yuzasidan otasiga javob qaytaradi. Uning shu javobida o‘zbek xalqiga xos milliy jihatlar, ya’ni ota-onani hurmat qilish, farzandlik burchini bajarish, kamtarinlik kabi umuminsoniy fazilatlar ko‘zga tashlanadi. Chunki azaldan o‘zbeklar farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib keladi.

Ana shunday o‘rinlarda qahramon xarakterini ochib berish vositasida xalq, millat ruhiyati, uning milliyligi ochib beriladi. Bu kabi ifodalarni adabiyotimizdagi deyarli barcha she’riy va nasriy asarlarda uchratamiz.

Rayhon hidlarini yo‘llarimga sep.

Kut meni har oqshom ko‘kka oy chiqqan.

Faqat yig‘lamagin aybim nima deb,

Aybing-onang seni chiroyli tuqqan.

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf qalamiga mansub ushbu she’rda ham o‘zbek milliy o‘simgili bo‘lmish rayhon tilga olinadi. Bu ijodkor she’rlarida biz juda ko‘plab milliylik hissi ufurib turgan badiiy tasvirlar, chiroyli o‘xshatishlarni uchratamiz. O‘zbek millatiga xos tantilik, samimiylilik, bag‘rikenglik, insoniylik va Vatanga sadoqat tuyg‘ulari shoirning qon-qoniga singib ketgani uning sof xalqona she’rlarida to‘la namoyon bo‘ladi deyish mumkin.

Demak, har bir millat o‘zligini, milliyigini va ma’naviyatini adabiyoti orqali dunyoga tanitadi. Biz buning isbotini davrlar mobaynida ko‘rib kelyapmiz. O‘zbek adabiyotida ham milliylik libosi bilan yo‘g‘rilgan badiiy asarlar juda ko‘p yozilgan va yozilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. *Adabiyot nazariyasi.Ikki tomlik.1978,1979-yillar.*
2. *I.Sulton.Adabiyot nazariyasi.T.1980-yil.*
3. *M.Yusuf “Saylanma”. T. 2012-yil.*